

MAKTABGACHA YOSHDAGI TARBİYALANUVCHILARNI ATROF –OLAM BILAN
TANISHTIRISH USLUBLARI

Tursunboyeva Zuxra Umid qizi

ChDPU Maktabgacha talim metodikasi kafedrası magistri

Elekton pochta: @zuxratorsunboyeva97gmail.com

tel: +93-333-05-17

Annotatsiya: *Mazkur maqolada talabalarga tabiat bilan tanishtirish metod va usullari haqida bilim berish, maktabgacha yoshdagi bolalarga bilim berishda bilimlar mazmunga ko'ra uslub va usullar tanlash va uni to'g'ri tashkil eta olish haqida ma'lumotlar berib boriladi.*

Kalit so'zlar: *uslub, metod, kuzatish, amaliy, usul, pedagogik metod, ko'rgazmali, og'zaki.*

O'zbekiston Respublikasi milliy davlatchiligimizning poydevori kun sayin mustahkamlanib, rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizda yosh avlod ta'lim –tarbiyasiga bo'lgan e'tibor ayniqsa sezirarli darajada kun kunga yanada kuchaymoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son "2017 — 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq „O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 3-iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3032 bilan ro'yxatdan o'tkazildi. Davlat talablari ta'lim va tarbiyaning sifatini yanada yaxshilash va har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni tarbiyalash vazifasini belgilab beradi. Mazkur O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari (bundan buyon matnda Davlat talablari deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son "2017 — 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida"gi qaroriga asosan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni (bundan buyon matnda bolalar deb yuritiladi) har tomonlama rivojlantirish, ta'lim-tarbiya berish, maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha davlat talablarini belgilaydi. amalga oshirishda ta'lim tizimining birinchi bosh bo'g'ini hisoblangan maktabgacha tarbiya muassasalari, xususan, maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish, tabiatini muhofaza qilish, ekologik ta'lim-tarbiya berishning ahamiyati kattadir. Yosh avlodni etuk mutaxassislar, aqlan, ruhan kamol topgan o'z Vatanini sevuvchi, uni e'zozlovchi inson qilib tarbiyalashda ushbu sohaning o'rni beqiyos. bolalarni tabiat hodisalari bilan tanishtirish, ularning mohiyatini tushuntirish kasbiy-pedagogik faoliyatda muhim sanaladi.

Maktabgacha yosh - ta'limda ayniqsa mas'uliyatli davr, chunki bu bola shaxsining dastlabki shakllanishi yoshidir. Bu vaqtda bolaning tengdoshlari bilan muloqotida uning shaxsiyatining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan juda murakkab munosabatlar paydo bo'ladi. Maktabgacha yoshda bolaning dunyosi allaqachon, qoida tariqasida, boshqa bolalar bilan uzviy bog'liqdir. Bola qanchalik katta bo'lsa, uning tengdoshlari bilan aloqalari shunchalik muhim bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalik - bu inson rivojlanishining juda muhim davri. Uning mavjudligi jamiyatning va ma'lum bir shaxsning ijtimoiy-tarixiy va evolyutsion-biologik rivojlanishi bilan belgilanadi, bu esa ma'lum yoshdagi bolaning rivojlanishi uchun vazifalar va imkoniyatlarni belgilaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalik, kelajakdagi maktab ta'limidan qat'i nazar, mustaqil ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalik davri bolada kollektivistik fazilatlar asoslarini, shuningdek, boshqa odamlarga nisbatan insoniy munosabatni shakllantirish uchun sezgir. Agar bu fazilatlar asoslari maktabgacha yoshda shakllanmasa, bolaning butun shaxsiyati nuqsonli bo'lib qolishi mumkin va keyinchalik bu bo'shliqni to'ldirish juda qiyin bo'ladi. Bu yoshda kognitiv faollik kuchayadi: idrok etish, vizual fikrlash rivojlanadi, mantiqiy fikrlashning boshlanishi paydo bo'ladi. Kognitiv qobiliyatlarning o'sishiga semantik xotira, ixtiyoriy e'tiborni shakllantirish yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof –olam bilan tanishtirishda turli xil pedagogik metodlardan foydalaniladi. Pedagogik metod-pedagog va ta'lim oluvchining (bolaning) ma'lum ta'lim-tarbiyaviy natijasi: bilimlarni egallash malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, qobiliyatlarni o'stirishda axloqiy sifatlar, xul-atvorni shakllantirish uchun yo'llangan hamkorlikdagi faoliyat usulidir. Metod-yunoncha so'zdan olingan bo'ib, bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot, maqsadga elituvchi yo'l degan ma'noni anglatadi. Voqelikni amaliy yoki nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l-yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirish metodlari asosiy 3 ta guruhga bo'lnadi:

1. Ko'rgazmali uslub-kuzatish, tarqatma material, rasmlarni tomosha qilish, diafilm, kinofilm, sayr, ekskursiyalar.
2. Amaliy uslub-o'yin metodi, mehnat, oddiy tajribalar.
3. Og'zaki uslub- tarbiyachi hikoyasi, badiiy asarlarni o'qish, suhbat, she'r, topishmoq, savoljavoblar.

Ko'rgazmali metodi-turli yosh gurhlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri. Kuzatish- tabiat jismlari va hodisalarining tabiiy sharoitlarda maqsadga yo'nalgan va bevosita hodisalarga aralashmagan holda sezgilar orqali axborot qabul qilish jarayonidir. Kuzatish murakkab bilish faoliyati bo'lib, bu orqali bolalarda idrok, nutq, tafakkurva sezgi jarayonlari birgalikda ishtirok qilib, barqaror diqqatni hosil qiladi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda doimiy ravishda kuzatishlar olib borish, ularning mantiqiy fikrlash va nutqining o'sishiga katta xizmat qiladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida ularni ma'lum tartibli ketmaketlikdan tanishtirib borish lozim. Kuzata bilish — juda muhim xususiyat bo'lib, bunda bolada to'g'ri yoza bilish, og'zaki nutq malakalari rivojlanadi. Bu jarayonni tarbiyachi to'g'ri va qulay tashkil eta olsagina ma'lum bir yutuqqa erishish mumkin. Bolalarni hodisa va narsalarni maqsadga muvofiq holda o'zlashtira olishga va ularning eng muhimlarini saralab olish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Bunda tarbiyachi kuzatish jarayonida narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni bolalarga to'g'ri tushuntirib yetkazib bera olishi muhim o'rin tutadi. Bolalar ko'rib, fikrlab, fikrlarining to'g'ri yoki noto'g'riligini tarbiyachidan so'rashi va bunga nisbatan tarbiyachi yana ham aniqroq bolaga javob berishi kerak. Bola xotirasi ko'rish, his qilish orqali yanada mustahkamlanib boradi. Hozirda kuzatish uslubi, rasmlar tomosha qilish, diafilm, kinofilm, sayr va ekskursiyalar orqali bolalar atrof — olam bilan yaqindan tanishtirilib kelinmoqda. Bu usullarning barchasi bolajonlar uchun qiziqarli va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilishi kerak. Shu sababdan ham muhimi ularni o'z vaqtida bolalarga to'g'ri tashkil eta olish hisoblanadi. Noto'g'ri tushunchalarni tuzatish, yangi tushunchalar hosil qilishga nisbatan ancha qiyinroqdir. Shuning uchun bolalar maktabgacha ta'lim yoshidayoq, his qilish tajribalariga asoslangan holda, tabiat haqida to'g'ri tushunchalarga ega bo'lishlari juda muhimdir.

Bolalarda tabiatga qiziqishni tarbiyalash zarur, chunki u sog'lom bo'lmagan faoliyatlarda ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, bolalar qo'ng'iz va kapalaklarni tutib olib, nima qilar ekan deb, ularning qanot va oyoqlarini uzib tashlaydilar. Yoki hayvonlarni, qushlarni qiynab, natijasi nima bo'lar ekan, deb qiziqadilar. Ularga tabiatning o'zaro bog'liqligini, ya'ni uning «oltin zanjir» ekanligini tushuntirish zarur. Bu orqali bolalarga ekologik ta'lim tarbiya berib boriladi.

«Tabiat bilan yaqin munosabatda bo'lish, kuzatuvchanlik bilan birgalikda bilishga ham qiziqishni o'rgatadi. Buning asosida taxminiy va tekshiruvchanlik refleksi yotadi va uning nihoyatda taraqqiy etishi insonning xarakterli xususiyatidir», deb hisoblaydi I.P.Pavlov. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kattalarga «Bu nima?», «Nima uchun?», «Qanday qilib?» kabi cheksiz savollari bunga misol bo'la oladi. Bu o'rinda tarbiyachi savollarga javob topishda bolalarning o'zlarini jalb qilishga harakat qilishi zarur.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning turli yosh guruhlarida tarbiyachi kuzatishlarni tashkil etar ekan, uning turli xillaridan foydalanadi.

Kuzatishlar davomiyligi va xarakteri bo'yicha qisqa muddatli va uzoq muddatli bo'lishi mumkin.

O'simlik va hayvonlarni o'sishi hamda rivojlanishi, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar haqidagi bilimlarning jamg'arilishi uchun kuzatishning ancha murakkabroq

turi — uzoq muddatli kuzatishlardan foydalaniladi. Bunda bolalarning obyektning kuzatilayotgan holatini ilgariyasi bilan qiyoslashlariga to'g'ri keladi.

Amaliy uslub- bu uslub o'z ichiga o'yinlar, bolalar mehnati, oddiy tajribalarni o'z ichiga oladi. O'yinlar tabiatning oddiy hodisa va tasavvurlarini kengaytirish maqsadida kuzatishlar bilan birgalikda o'yinlardan ham keng foydalaniladi. Bu o'yinlar orqali bolalar ko'rgan voqea hodisalarini ijodiy o'zlashtiradilar. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda harkatli, didaktik va harakatli o'yinlardan keng foydalaniladi. Didaktik o'yinlarda bolalar o'zlarida tabiatdagi narsa va hodisalar, hayvonlar va o'simliklar haqida mavjud bo'lgan bilimlarni aniqlaydilar, mustahkamlaydilar va kengaytiradilar. Didaktik o'yinlar- didaktik o'yinlarda bolalar ob'ektlar va tabiat hodisalarini, o'simliklar va hayvonlar haqidagi mavjud tasavvurlarini aniqlaydilar, mustahkamlaydilar, kengaytiradilar. Ob'ektli o'yinlar- barglar, urug'lar, gullar, meva va sabzavotlar bilan o'yinlar: "Ajoyib sumka", "Ust va ildizlar", "Bu shoxda kimning bolalari?". Kichik va o'rta guruhlarda keng qo'llaniladi. Stolda chop etilgan o'yinlar: "Zoologik lotto", "Botanika lotto", "To'rt fasl", "Rezavorlar va mevalar", "O'simliklar" - bolalarning o'simliklar, hayvonlar, jonsiz hodisalar haqidagi bilimlarini tizimlashtirish imkoniyatini beradi. Bilimlarni mustahkamlash maqsadida "Kim uchadi, yuguradi, sakraydi", "Kerak – kerak emas" so'z o'yinlari o'tkaziladi. Tabiatdagi mehnat- individual va jamoaviy topshiriqlar shaklida tashkil etilgan. Individual ko'rsatmalar bolalarning harakatlarini diqqat bilan boshqarishga imkon beradi, jamoaviy ish guruhidagi barcha bolalar uchun bir vaqtning o'zida mehnat ko'nikmalari va qobiliyatlarini shakllantirishga imkon beradi. Elementar tajribalar maxsus sharoitlarda olib boriladigan kuzatishdir. Bu ob'ekt yoki hodisaga faol ta'sir qilishni, ularni maqsadga muvofiq ravishda o'zgartirishni o'z ichiga oladi. Tajriba kognitiv muammoni hal qilish usuli sifatida ishlatiladi. Bolalar tabiat hodisalarini to'g'ri idrok etishlari uchun ularning tabiatni idrok etish jarayonini yo'naltirish kerak. Bolalarni tabiatga yaqinlashtirmasdan va uni bog'chaning tarbiyaviy ishlarida keng qo'llamasdan turib, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama - aqliy, estetik, axloqiy, mehnat va jismoniy rivojlantirish muammolarini hal qilish mumkin emas. R. Tagor shunday degan edi: "Unda go'zallik tuyg'usini tarbiyalamasdan turib, komil insonni tarbiyalab bo'lmaydi ...": bu so'zlar axloqiy va estetik tarbiyaning ajralmasligi, o'rtasidagi bog'liqlik g'oyasini sodda va aniq ifodalaydi.

Og'zaki ulub-suhbatlar, badiiy adabiyot o'qish, savol-javoblar, topishmoqlar, qo'shiq va she'rlar yodlatish orqali tashkil qilinadi. Suhbat- ikki xil: yakuniy va dastlabki. Dastlabki - kuzatish, ekskursiya oldidan foydalaniladi. Maqsad - bo'lajak kuzatuv va bilim o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish uchun bolalar tajribasini aniqlashtirish. Final suhbat olingan faktlarni tizimlashtirish va umumlashtirish, ularni konkretlashtirish, mustahkamlash va aniqlashtirishga qaratilgan. Suhbat bolalar bilan olib borilgan ishlarning natijasidir. SHuning uchun tarbiyachi oldiga kuzatish, mehnat, o'yin, o'qish, hikoyalar orqali bolalarda g'oyalarni to'plash vazifasi qo'yiladi.

Badiiy adabiyot o'qish- bolalar tabiat tarixi kitobi o'qituvchi tomonidan, birinchi navbatda, ta'lim maqsadlarida foydalaniladi. Kitob kognitiv qiziqish, kuzatish va qiziquvchanlikni tarbiyalash uchun boy materiallarni taqdim etadi. Rus pedagogikasida birinchi marta E. N. Vodovozova yurish va ekskursiya paytida kuzatishda bolaga tanishtirilishi kerak bo'lgan tabiat hodisalari va ob'ektlari doirasini aniqladi. U maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish dasturini ishlab chiqdi va materialni yoshga qarab ajratdi. Hayvonot dunyosi bilan tanishish, o'qituvchining fikriga ko'ra, jonli suhbat, suhbat yoki bola ko'rgan narsalar haqida qisqacha hikoya bilan birga vizual tarzda amalga oshirilishi kerak. Barcha kuzatishlar tushuntirilishi kerak, ularning maqsadi bolaga ko'rinadigan narsalarni tushunishga yordam berish, uning g'oyalarini aniqlashtirish, nutqni rivojlantirish, so'z boyligini boyitish, shuningdek, bolalarni erta yoshdan hayvonlarga e'tiborli bo'lishga o'rgatishdir. E.N. Vodovozova bolalarga mavzuning jonli, o'ziga xos tomonlarini ko'rsatish, bir vaqtning o'zida ular tushunolmaydigan narsalarni mahorat bilan yoritish kerakligini ogohlantirdi. U yosh maktabgacha yoshdagi bolaga mavzuning tafsilotlarini ko'rsatish yoki bu haqda hozirgi vaqtda uning ko'z o'ngida bo'lmagan hayvonlar yoki qushlar hayotidan gapirishni o'qituvchining katta xatosi deb hisobladi.

Xulosa qilib aytganda, bolalarni atrof-olam bilan tanishtirishda bolalarning yosh va rivojlanish xususiyatlari va qiziqishlaridan kelib chiqib tarbiyachi o'z maqsadiga erishish yo'lida turli uslub va usullardan to'g'ri foydalangan holda bolalarga axborot va bilimlarni yetkazib bera olishi kerak. Bu faoliyatni tashkil etishda albatta tarbiyachidan pedagogik mahorat, bilim, malaka va ko'nikmalar talab etiladi. Biz qaysi uslubdan foydalanmaylik bolalarga ma'lumotlarni to'g'ri va aniq tushuntirib, yetkaza olsakgina maqsadga erishgan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.M.Umarova/Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga ma'suliyatli munosabatda shakllantirish.-T.:2008.

2.SH.A.Sodiqova, M.A.Rasulova / Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi.-T:.,,Fan va texnologiyalar" 2013.

3. X.J.Jabbarova / Tabiat bilan tanishtirish metodikasi.-T.:2009.

Internet saytlari

www.pedagog.uz

www.edu.uz

www.arxiv.uz

Bola shaxsining mukammal shakllanishida tabiat, unda bo'ladigan voqea-hodisalar, tabiat qonuniyatlari muhim rol o'ynaydi. Xususan, quyidagi rivojlanish sohalarida „Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi”, „Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari” va eng muhimi „Bilish jarayonining rivojlanishi” da tabiat bilan tanishtirish jarayonini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

JISMONIY RIVOJLANISH VA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANISHI

Kichik soha: Sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik

Talab: Bola sog'liqni saqlash malakalarini namoyon qiladi. Bola xavfsiz sog'lom taom va hayot xavfsizligi qoidalari haqida tushunchaga ega

3-4 yosh: xavfli bo'ladigan predmetlarni farqiga boradi.

4-5 yosh: vitaminlar va sog'lom ovqatlanish foydasini biladi; xavfli bo'lgan predmetlar, joylar va moddalar nomini biladi (zinapoya, boloxona, ochiq oyna, issiq suv, olov, dori, o'tkir asboblar, elektr); notanish insonlar bilan ketish mumkin emasligini tushuntiradi; qanday qilib gavgani to'g'ri tutish kerakligini tushuntirib bera oladi.

5-6 yosh: vitaminlar va ularni taomdagi foydasini biladi; salomatlik haqida qayg'urish muhimligini anglaydi; asosiy tana a'zolari va ularning funksiyalarini biladi; piyodalar uchun asosiy yo'l qoidalari biladi; suv ichish foydasini anglaydi va mustaqil suv ichish rejimini bajaradi; xavfsiz xatti-harakatning asosiy qoidalari biladi va ularga rioya qiladi; yordam zarur bo'lganda kattalarga murojaat qilish kerakligini biladi; xavfli faoliyatlar nomini aytib beradi: xavfli joylarda o'ynash (mashina qatnovi yo'laklarida, qurilish yaqinida, notanish suv havzalarida, ko'l, oqar suvlarda cho'milish), velosipedda mashina qatnovi yo'llarida.

6-7 yosh: tabiat burchagidagi o'simliklar va jonzotlarni parvarishlaydi;

salomatlikka zararli bo'lgan xulq shakllarini anglaydi (chekish, ichkilikbozlik, olov bilan o'ynash va hokazo) ; bog'chada, ko'chada, transportda yurish qoidalari rioya qiladi; piyodalar va velosipedchilar uchun yo'l qoidalari biladi;

yong'in xavfsizligi -101; milliy gvardiya- 102; tez yordam -103; gaz xizmati -104 telefon raqamlarini biladi; xavfli vaziyatlarda qanday yo'l tutishni biladi va tushuntiradi supermarketda, shaharda, qishloqda, dalada yo'qolib qolsa, o'zini qanday tutish kerakligini biladi.

NUTQ, MULOQOT, O'QISH VA YOZISH MALAKALARI

Kichik soha: Nutq va til

Talab: Bola nutqni tinglaydi va anglaydi, so'zlashadi va muloqot qiladi

5-6 yosh: kuzatayotgan hodisa va voqealarni tushuntirib beradi;

umumlashtiruvchi so'zlarni to'g'ri qo'llaydi (meva, sabzavot, daraxtlar, qushlar, idish-tovoq) o'ziga nisbatan predmetlar joylashuvini ta'riflaydi (oldimda, stolda) ;

6-7 yosh: yil fasllari nomini biladi (bahor, yoz, kuz, qish).

BILISH JARAYONINING RIVOJLANISHI

Kichik soha: Intellektual-bilish malakalari

Talab: Bola qiziquvchan, intiluvchan, faol, bilishga qiziqish bildiradi va unga ehtiyoji mavjud

3-4 yosh: bitta belgi asosida predmetlarni ajratadi; olti rangni farqlaydi va ajratadi; bir xil poyini topadi; rasmlardagi predmetlarni taniydi va nomini aytadi; jonli obyektlarga qiziqish bildiradi; predmetlar yasalgan materialni farqlaydi (qog‘ozdan, taxtadan, temirdan) ; xonani kuzatadi va o‘zi turgan joyni aniqlaydi; atrof-muhitga qiziqish bildiradi.

4-5 yosh: rasmlarni solishtiradi; 2-3 belgi asosida guruhlarga ajrata oladi; jonzodlarni asosiy ehtiyojlarini ta’riflaydi va taqqoslaydi (hayvonlar: ovqat yeydi, nafas oladi, harakatlanadi va hokazo) ; hayot uchun suv, havoning ahamiyatini ta’riflaydi; kun qismlarini nutqida to‘g‘ri qo‘llaydi va biladi (ertalab, peshin, kechqurun, kechasi) ; yil fasllarini tavsiflaydi; atrof olamga faol qiziqish bildiradi.

5-6 yosh: rasm asosida sujetni eslab qoladi va gapiradi; ketma-ketlikni saqlagan holda fikr yuritadi, mulohaza qiladi; turli hayvonlarning yashash joylarini aytadi (baliq suvda yashaydi, bo‘ri o‘rmonda) ; geografik tushunchalarni biladi (yer, dengiz, tog‘, daryo) ; oddiy sabab va oqibat aloqalarni tushunadi (yomg‘ir yog‘yapti — panaga o‘tish kerak) ; sinash va xatolarni tahlil qilish yo‘li bilan amaliy vazifalar yechimini topishga harakat qiladi (mashinani yurg‘izish uchun kalitni burash kerak) ; obyektlarni tizimga soladi.

6-7 yosh: atrof-olam haqida mustaqil ma’lumot izlaydi; kuzatuvlar asosida xulosa qiladi va umumlashtiradi; yil fasllari va voqea-hodisa ketma-ketligini aytadi; rasmlar bo‘yicha ketma-ketlikni saqlagan holda fikr yuritadi, mulohaza qiladi; o‘z mamlakati va uning ramzlari haqida tushunchaga ega; o‘z xalqining ayrim milliy an‘analari va odatlarini biladi; bolalar ensiklopediyasidan foydalana oladi (kerakli ma’lumotni topa oladi) ; ichki va tashqi belgilarga ko‘ra predmetlarni guruhlarga ajratadi (rangi, shakli, hajmi, vazni, harakatlanish tezligi, vazifasiga qarab).

Kichik soha: Elementar matematik malakalar

Talab: Bola elementar matematik malakalarga ega

3-4 yosh: atrof-muhitdan “bitta” va “ko‘p” ni topadi ;

4-5 yosh: ko‘pliklarni taqqoslaydi “ko‘proq”, “kamroq”, “teng”; bo‘shliqda yo‘nalish olishni biladi (oldinda, orqada, tepada, pastda, yaqin, uzoq);

5-6 yosh: predmetlarni uzunligi, eni, qalinligi va balandligiga ko‘ra taqqoslaydi;

6-7 yosh: hajmi, balandligi va qalinligiga qarab predmetlarni ketma ket joylashtiradi; shartli belgi asosida suyuq, sochiluvchan va qattiq materialni o‘lchaydi.

Kichik soha: Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat

Talab: Bola o‘zining tabiiy muhitiga qiziqishini namoyon qiladi, fanni o‘rganishda faol

3-4 yosh: kattalar bilan birgalikda tadqiqotlarda qatnashadi (eritish, bo‘yash, cho‘ktirish, suv sathiga chiqarish va hokazo) ; tabiatdagi ayrim o‘zgarishlarni farqlaydi (qor, yomg‘ir, do‘l, issiq, shamol va hokazo) ; ayrim hasharot va qushlarni taniydi va

nomini aytadi; ayrim jonivorlar bolalarini nomini to'g'ri aytadi ; “sujet” asosida qurilmalar yaratadi ; suv va qum bilan o'ynaydi; jonli obyektlarni kuzatadi.

4-5 yosh: kattalar bilan birgalikda tadqiqotlarda ishtirok etadi (eritish, yaxlatish, magnetizm, bo'yash, qizdirish, qaynatish va hokazo); yil fasllariga xos tabiat hodisalarini biladi; nima uchun ovqatlanish, nafas olish, o'qish kerakligini biladi;

organizmning ma'lum bir organlari funksiyasini biladi; ayrim jismoniy jarayonlar muhimligini tushunadi; konstruktor, pazl, mozaika, legodan konstruksiyalar yaratadi.

5-6 yosh: tabiat hodisalarini turli omillarga bog'liqligini tushunadi; tabiatdagi o'zgarishlar sababini tushuntirib bera oladi (masalan, qor erishi) ; insonlarni atrof-olamga ta'sirini tushunadi (ekin ekish, hosil yig'ish) ; tabiiy materiallardan qo'l ishlarini yaratishni biladi, ish bosqichlarini belgilaydi; mustaqil qurib yasashi mumkin; jonli va jonsiz tabiatni farqlaydi; insonlar hayotida tabiatning ahamiyatini anglab etadi.

6-7 yosh: qurilmani mustaqil o'lchaydi (balandligi, uzunligi, kengligi bo'yicha) ; shaxsiy qiziqishi va kuzatuvlariga bog'liq savollar beradi; shaxsiy taxminlari haqida gapiradi, avvalgi va hozirgi tajribasini umumlashtiradi va tushuntiradi;

tadqiqotda yechimini talab etayotgan muammoni belgilaydi; turli resurslarni qo'llagan xolda shaxsiy kuzatuvlarni tasdiqlaydi va ta'riflaydi; atrof-muhitni yaxshilashda ishtirokning muhimligini tushunadi (masalan, axlat chiqindilarini tashlash, ularni ajratish, daraxt va gullar ekish, suv, elektr energiyasi va qog'ozni asrash).

Xulosa qilib aytganda, tarbiyachi rahbarligida o'tiladigan mashg'ulotlarda guruhlarning barcha bolalarida Davlat talablariga muvofiq oddiy ilmlar bilan shakllanadi va yoshiga mos ravishda takomillashib boradi. Mashg'ulotlarda Davlat talablarida belgilangan yoshiga mos ravishda rivojlanish sohalari bo'yicha uchraydigan kamchiliklarni aniqlash va unga mos yechim topish, hamkorlikdagi ishlarni yo'lga qo'yish , individual holda shug'ullanish zarur. Ana shundagina biz ko'zlagan maqsadga erishgan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari.

2. M.Umarova/Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga ma'suliyatli munosabatda shakllantirish.-T.:2008.

3. SH.A.Sodiqova , M.A.Rasulova / Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi.-T:.,,Fan va texnologiyalar” 2013.

4. X.J.Jabbarova / Tabiat bilan tanishtirish metodikasi.-T.:2009.

Internet saytlari

www.pedagog.uz

www.edu.uz